

# **To‘garak xizmatlarini taklif etuvchi ta’lim tashkilotlariga taqdim etilgan kompensatsiyadan foydalanish samaradorligini baholash bo‘yicha METODOLOGIYA**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Metodologiya Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda vazirlik) tizimidagi to‘garak xizmatlarini taklif etuvchi tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda – ta’lim tashkiloti)ga ayrim toifadagi o‘quvchilar (keyingi o‘rinlarda – o‘quvchilar)ni qo‘shimcha ta’lim (keyingi o‘rinlarda – to‘garaklar)ga jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar uchun taqdim etilgan kompensatsiyaning samaradorligini baholash hamda maqsadsiz foydalanilgan kompensatsiyani to‘xtatish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**ayrim toifadagi o‘quvchilar** – ijtimoiy reestrda kiritilgan oilalarning umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ta’lim olayotgan farzandlari;

**maqsadli ko‘rsatkichlar** – ijtimoiy reestrda kiritilgan oilalar farzandlarini qo‘shimcha ta’limga qamrab olish darajasi;

**monitoring qilish** – ta’lim tashkilotiga taqdim etilgan kompensatsiyadan foydalanishni kuzatish hamda tahlil qilish jarayoni;

**to‘garak** – elektron platformada mavjud bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlaridagi darslardan tashqari vaqtlarda kasb-hunar, axborot texnologiyalari, xorijiy til, umumta’lim fanlari yo‘nalishlari, darsdan keyingi qo‘shimcha ta’lim (uzaytirilgan kun guruhlari) bo‘yicha qo‘shimcha ta’lim;

**to‘garak xizmatlarini taklif etuvchi tashkilot**– qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi elektron platformada ro‘yxatdan o‘tgan davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari, kasb-hunar o‘rgatuvchi markazlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

**ta’lim tashkiloti samaradorligini baholash** – maqsadli ko‘rsatkichga erishishini monitoring qilish;

**qo‘llab-quvvatlash chorasi** – ta’lim tashkilotiga taqdim etiladigan to‘garak to‘lovi(kompensatsiya);

**elektron platforma** – o‘quvchilar uchun to‘garak xizmatlarini taklif etuvchi tashkilot va ulardagi yo‘nalishlar haqida ma’lumotlar bazasi hamda o‘quvchilarning to‘garaklarga borishini monitoring qilish va to‘garak xarajatlarini hisoblashga mo‘ljallangan axborot tizimi.

## **2-bob. Ta'lim tashkilotining samaradorligini baholashda Vazirlikning va Ta'lim tashkilotining vazifalari**

3. Ta'lim tashkilotining samaradorligini baholashda Vazirlikning vazifalari:

ta'lim tashkiloti tomonidan o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, qiziqishlariga mos bo'lgan to'garaklarga jalb etish, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar hamda zamonaviy, innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarga ta'lim berilishini nazorat qilish;

ta'lim tashkilotiga taqdim etilgan to'garak to'lovining samaradorligi yuzasidan tizimli monitoringni tashkil etish;

monitoring jarayonini elektron axborot tizimlari orqali shaffof tarzda amalga oshirish.

4. Ta'lim tashkilotining vazifalari:

o'quvchilarning to'garak mashg'ulotlarini olib borish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish;

to'garak vaqtida o'quvchilarning xavfsizligi, sog'lig'i, ijtimoiy tengligini ta'minlash;

o'quvchilarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;

to'garakni muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchiga tegishli hujjat (sertifikat, ma'lumotnoma) berish;

elektron platformaga o'quvchilarning ma'lumotlarini to'g'ri va haqqoniy kiritish;

qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

## **3-bob. Monitoring qilish tartibi**

5. Ta'lim tashkiloti samaradorligini baholash yuzasidan tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvi orqali elektron platformada Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan har oyda hisobot oyidan keyingi oy yakuniga qadar elektron monitoring o'tkaziladi. Bunda, elektron monitoring quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi.

ta'lim tashkiloti tomonidan ijtimoiy reestrqa kiritilgan oilalar farzandlarini qo'shimcha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi;

ta'lim tashkiloti joylashgan joylashuvi bo'yicha geolokatsiyasidan boshqa joyda qayd etilganligi;

Ta'lim tashkiloti tomonidan o'quvchilarning davomatlari to'g'ri yuritilganligi;

6. Zaruratga ko'ra, taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash chorasidan maqsadli foydalanish holati joyiga chiqqan holda ishchi guruh tononidan 10 kundan oshmagan muddatda o'rganiladi.

#### **4-bob. Samaradorlikni baholash tartibi**

7. Ta'lim tashkilotlarga ajratilayotgan kompensatsiyaning samaradorligini baholash ijtimoiy reestrغا kiritilgan oilalar farzandlarini qo'shimcha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi bilan belgilanadi.

8. Ijtimoiy reestrغا kiritilgan oilalar farzandlarini qo'shimcha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi axborot tizimi orqali avtomatik tarzda aniqlanadi. Bunda:

ta'lim tashkilotining litsenziyasi amal qilishi;

ta'lim tashkiloti faoliyat yuritayotganligi;

elektron platformada o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi inobatga olinadi.

Ta'lim tashkilotining litsenziyasi amalda bo'lganda, faoliyat yuritayotganda hamda elektron platformada o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lganda, ta'lim tashkiloti tomonidan ijtimoiy reestrغا kiritilgan oilalar farzandlarini qo'shimcha ta'limga qamrab olingan deb topiladi.

Ta'lim tashkilotining litsenziyasi bekor qilinganda, faoliyat yuritmayotganda hamda elektron platformada o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda, ta'lim tashkiloti tomonidan ijtimoiy reestrغا kiritilgan oilalar farzandlarini qo'shimcha ta'limga qamrab olinmagan deb topiladi.

9. Samaradorlikni baholash natijasiga ko'ra ta'lim tashkiloti tomonidan ijtimoiy reestrغا kiritilgan oilalar farzandlarini qo'shimcha ta'limga qamrab olingan deb topilganda, mazkur ta'lim tashkiloti faoliyati samarali deb topiladi hamda hisobot oyida kompensatsiya to'lovini to'lash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

#### **5-bob. Kompensatsiyani to'xtatish tartibi**

10. Samaradorlikni baholash natijasiga ko'ra ta'lim tashkiloti tomonidan ijtimoiy reestrغا kiritilgan oilalar farzandlarini qo'shimcha ta'limga qamrab olinmagan deb topilganda, mazkur ta'lim tashkiloti faoliyati samarasiz deb topiladi hamda hisobot oyida kompensatsiya to'lovi to'lanmaydi.

11. O'quvchi 19 yoshga to'lganda kompensatsiya to'lash to'xtatiladi.

12. O'quvchilarning davomati ta'lim tashkilotining joylashuv manzilidan (geolokatsiyasi) boshqa joyda qayd etilganda ularning davomati elektron platformada hisobga olinmaydi.

13. Ta'lim tashkiloti tomonidan o'quvchilarning ma'lumotlari elektron platformaga kiritilib, uning fotosurati o'rniga boshqa bolaning fotosurati ushbu

elektron platformaga joylashtirilgani aniqlanganda mazkur o'quvchining ota-onasi hamda ta'lim tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnoma (to'g'arak shartnoma)si ushbu holat aniqlangan kundan boshlab bekor qilinadi.

## **6-bob. Yakuniy qoidalar**

14. Mazkur Metodologiyada nazarda tutilgan talablarga (normalarga) rioya qilmagan tadbirkorlik subyektlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko'riladi.